

A.NAVOIY G'AZALLARIDA ISHQ TARANNUMI N.KOMILOV TOMONIDAN O'RGANILISHI

Akramova Dilnoza Rustam qizi

Samarqand arxitektura-qurilish texnikumi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy g'azallaridagi ishq tarannumi Najmiddin Komilov tomonidan talqin qilingan.

Kalit so'zlar: G'azal, ishq, oshiqlik, may, xilvat, haq, erur.

Abstract: In this article, the love hymn in Alisher Navoi's ghazals is interpreted by Najmiddin Kamilov.

Keywords: Ghazal, love, love, may, solitude, truth, truth.

Аннотация: В данной статье любовный гимн в газелях Алишера Навои интерпретируется Наджмиддином Камировым.

Ключевые слова: газель, любовь, май, одиночество, истина, правда.

Bir donishmanddan dunyoda eng kuchli lazzat nima? – deb so'raganida, u so'z lazzatli, so'z san'atidan huzurlanish, deb javob bergan ekan. Haqiqatan ham shunday. Insonning ma'naviy qiyofasi aql va tafakkur qudratini namoyish etuvchi ijod va iste'dod mevasi bo'lmish badiiy so'z kishiga olam-olam zavq bag'ishlaydi, hayrat va hayajonimizga sabab bo'ladi. Ammo eng katta mo'jiza – badiiy so'z lazzatini tuyib, ruhiy halovat olish uchun uni chuqur idrok etmoq, asar ma'nolarining butun nozik jihatlarini qat-qatigacha tushunib yetmoq lozim. Ana shunday har bir so'zni san'at darajasida anglab, unga jilo bera oladigan, har bir so'zdan haqiqiy javohirlar shodasi tuza oladigan ijodkor, san'atkor olim Najmiddin Komilov edi. Olimning Navoiy g'azallariga yozgan tahlil va sharhlari, ayniqsa, yuksak e'tirofga loyiqdir. Ijodkor Navoiyning ko'plab g'azallariga murojaat qilar ekan, shoir asarlarining bosh g'oyasi bo'lmish komil inson masalasi, tasavvuf g'oyalarini chuqur anglab yetadi va chiroyli yo'sinda uni kitobxon o'quvchiga

yetkazadi.

Shu o'rinda Navoiyning ishq va oshiqlik tasvirlarini chiroyli bo'yoqlar bilan sharhlab bergan Najmiddin Komilovning ba'zi sharhlarini ko'rib o'tsak.

“Xazoyin ul-ma’oniyy”ning 1-devoni “G’aroyib us-sig’ar”ga kiritilgan 45-g’azalning 4-baytida gap parvona ishq to’g’risida boryapti.

Ul o'tki o'rtadi parvonani, xamul o'tdin

Ko'ringki kovruladur sham dog'i yog'i bila.

Tasavvur qiling, sham, uning atrofida esa alangaga qarab talpinayotgan mitti parvona. U o'tga shunday ixlos bilan intiladiki, olovga qo'shilib yonib ketguncha tinchimaydi. Biroq parvona shunchalik oshiqligi, dardining zo'rligiga qaramay, ohu nola chekmaydi, balki jim-jit o'tga tomon talpinaveradi. Ul o't, ya'ni ilohiy ishq alangasi faqat parvonani emas, shamning o'zini-da mumi va yog'i bilan qo'shib qovuradi, eritib kuydiradi. Ulug' shoir tamsillar vositasida ishqning beintiho kuchi – zarrot-u jonzotlar, oshiq-u ma'shuq – barini qamrab oluvchi qudratini bizga tushuntirmoqchi bo'lgan. Shamning shu'lasini – ilohiy ishq, mumi va yog'i – dunyo, inson vujudi, parvona – oshiq inson timsollaridir. Parvona – fano timsoli, ya'ni yomon sifatlardan qutulish va mahmuda (yaxshi) sifatlarga ega bo'lish, hirsu xavasni tark etish yo'li. [1].

A.Navoiyning “Tiya kulbambga kirib, jono o'limdin ber najot” deb boshlanuvchi ushbu g'azali ham majoz usulida yaratilgan oshiqona g'azallar sirasiga kiradi. G'azalning 3-bayti quyidagicha:

Orazing mehrida og'zingdur gadolig' qilg'onim,

Haq seni xurshid qilmish zarroe bergil zakot.

Ushbu baytda Yor quyoshga tenglashtirilgan va uning zarralari

– nuri (so'zi, hikmati) oshiq uchun obihayotdir. Zohiran qaraganda Yor yuzi quyoshga o'xshatilmoqda. Lekin shu quyosh ichidan u nuktaday og'izni izlamoqda. Og'izni nukta deb aytishimizga sabab bor. Mumtoz adabiyotda Yor og'zining torligi, ba'zan ko'rinib ko'rinmay turishi go'zallik belgisi deb qaralgan. Biroq buning tagida orifona ma'no bor. Og'izning torligi komil pirning nihoyat nozik sirri va valiyning qudsiy

nafasiga ishoradir. [1].

Qadimdan bulbul va gul timsollari oshiq va ma'shuq obrazini ifodalab kelgan. Faqat har bir shoir bu timsollarni o'z rangi, o'z usuliva o'z mahorati yordamida tasvirlab kelgan. Xuddi shunday Navoiy ham bulbul, gul kabi timsollardan foydalangan. Ularni o'z tasavvuri doirasida sayqallagan. Xususan, hozir keltiradigan g'azal matlasidayoq bunga guvoh bo'lamiz.

Zihi har lahni bulbul savtining zotingg'a isboti,

Jahon bog'ida har gul yafrog'i husnungg'a mirete.

G'azalning birinchi baytidayoq vahdat ul-vujud ta'limoti g'oyasi bulbul va gul timsollari vositasida bayon etilgan. Bulbul gulga oshiq, yonib kuylaydi, bu oshuftalik, oshiqlik izhori. Ammo aslida bulbul gulga shuning uchun beqaror

Oshiqki, gul – Alloh jamoli aks etgan ko'zgu, gulning har bir yaprog'ida shu nur jilolanib turadi. Gul va bulbul shu uchun sharq she'riyatida ko'p tilga olinadi. Lekin aslida bunda Tabiat va Inson nazarda tutilgan. Gul – tabiat, Alloh yaratgan borliq timsoli, gulning nafisligi, latofati esa Alloh tajalliyoti, husnining ramzi. Bulbul bo'lsa ana shu Husnga maftun insondir. [1].

Yuqoridagi baytlardan birida parvona ishq haqida gap ketgan edi. Hozir o'sha baytdan oldingi bayt haqida so'z yuritamiz. Endi parvona ishqiga teskari ravishda bulbul ishq tasvirlangan ushbu bayt quyidagicha:

Erur sukutu fano ishq lozimi, bulbul

Ne voqif oncha fig'onu ulug' dimog'i bila.

Baytning ma'nosi quyidagicha: "Sukut saqlash va fano – jismunafs ehtiyojlaridan batamom qutulish, ishqning zaruratidir, shuncha nola fig'oni, sarxushu oshuftaligi bilan bulbul buni qaydan bilsin".

Ha, shoir bu yerda oshiqlik ramzi, nafosat oshuftasi, ishqni yonib kuylovchi bulbul bilan bahsga kirishgan. Bu qiziq, chunki Navoiyning bir qancha g'azallarida bulbul xonishi madh etiladi, lekin bu baytda u bulbul ishqning mohiyatiga tushunib yetmaydi, degan fikrni bayon etadi. Balki boshqa ma'no bordir bu gapning tagida, balki shoir biror-bir

mazhab aqidasini, tariqatning biror silsilasi peshvosining ko'rsatmalarini tasdiqlayotgandir. Darhaqiqat, matlubga yetishish yo'li faqat ohu nola emas. Fig'on chekmay, zohiran sukutda bo'lib, dardni elga oshkor qilmay, botinan ko'ngilni ma'rifatdan serob etib, fano martabasini egallash ham mumkin. Masalan, Xo'ja Bahouddin Naqshbandning aqidasi shunday. Samo va zikrga berilmay, muayyan kasb bilan shug'ullanib odamlarni Haqni tanishga da'vat etgan darveshlarning yo'li shuni taqozo etardi.

Ulug' mutafakkir ramziy yo'sinda tariqat ahlining ikki toifasi sulukini taqqoslagan: tinch-xotirjam zikr bilan ichki olamni taraqqiy ettirib Haqqa yaqinlashuvchilar va samo, raqs, qo'shiq-kuy orqali muhabbatlarini ochiq izhor etuvchi betoqat, bezovta odamlar. SHunday, oshiqlik har doim ham fig'onu nola emas ekan, "anjumanda xilvat" ko'ruvchilarning botiniy ma'rifati, koshiflik yo'lida o'zgacha yonish, o'zgacha qat'iyat bor. [2].

Ishq haqida yozmagan shoirning o'zi bo'lmasa kerak. SHoiralar ham she'rlarida turli xil ishqni kuylaganlar. Ayrimlar majoziy ishqni kuylagan bo'lsalar, boshqalar esa haqiqiy ishqni tarannum etganlar. Lekin ikkisining zamirida Alloh muhabbati, Iloh ishq yashirin. Faqat birisi bu ishqiga kimnidir vosita qilib erishadi, boshqasi to'g'ridan- to'g'ri Haq ishqiga noil bo'lishni xohlaydi. Ikki ishq ham tasavvufiy, so'fiy shoirlarga taalluqlidir.

"Ishq ham avjiga ko'tarilganda bamisoli zarpechakday odamni bedarmon qiladi, sezish qobiliyatini susaytirib, yeb-ichishdan mahrum etadi, ishqqa chalingan kishiga o'zgalarning gap-so'zi malolkeladi, u do'stdan boshqasiga qaramaydi" [2], – deb yozadi Sayyid Zafar Sajjodiy. U yana davom ettiradi: "Deydilarki, ishq shunday bir o'tki, oshiqnigina emas, ma'shuqni ham yondiradi, ishq

– balo daryosidir va ilohiy junundir va dilning ma'shuq sari qiyom etishidir".

"Ishq oldida dengizlar – tomchi, tog'lar – zarra. U dengizni jo'shu xurushga keltirib, tog'ni talqon qila oladi. "Ey ishq baloyi jon erursan, ham jonima darmon erursan" [3], deydi Navoiy.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Komilov N. Ma'nolar olamiga safar. Toshkent, 2012, 316 bet.

2. Sayyid Ja'far Sajjodiy. Istilohoti urafo. Lug'atlar to'plami.
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami, 20 tomlik (9-tom). Toshkent 1987-2003-y.